

[Print](#) [1] | [PDF](#) [2]

[OAV vakillari Orol dengiziga sayohat qiladi](#) [3]



[4]

Shu yilning 11-12-may kunlari Orol dengiziga mediaturni tashkil etiladi. Shu maqsadda bir guruh o'zbekistonlik ommaviy axborot vositalari vakillari Qoraqalpog'iston Respublikasiga yetib keldi.

Mazkur mediaturni "UzWaterAware" loyihasi doirasida O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va Evropa Ittifoqining markaziy Osiyodagi ekologik markazi tomonidan tashkil qilinmoqda. Mediaturni ko'zlangan maqsad Qo'ng'iroq va Mo'ynoq tumanlari hududidagi Sudochoye ko'li, Ustyurt platosi, Urga qishlog'i, Ustyurt chinklari, Orolning qurigan tagidagi paydo bo'lgan to'qayzorliklar, Uchsoy baliqchilar qishlog'i, Kemalar muzeyi, Amudaryo sohillari, shuningdek, Shege ko'li kabi qator joylarga sayohat etishdan iborat.

Orol dengiziga sayohatda O'zbekiston Milliy axborot agentligi (O'ZA), "Jahon" axborot agentligi, bir nechta internet-nashrlari hamda ekologiya sohasiga ixtisoslashgan gazeta-jurnallar jurnalistlari, shuningdek, "Dunyo bo'ylab" telekanali ijodkorlari, blogerlar va fotograflar ishtirok etmoqda.

Mediaturni tafsilotlari haqida saytimiz orqali batafsil ma'lumot berib boramiz.

2018-05-11

Source URL: <http://uznature.uz/uz/node/3327>

Links

[1] <http://uznature.uz/print/3327>

[2] <http://uznature.uz/printpdf/3327>

[3] <http://uznature.uz/uz/node/3327>

[4] http://uznature.uz/sites/default/files/styles/news/public/field/image/123_4450.jpg?itok=x3UoKI3Z